

=====

NEGA YANGI YIL BAYRAMI OLDI NARXLAR KO'TARILADI?

Shakarov Allayor Baratovich*Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, dotsent***Babamuratova Mahliyo Shuxrat qizi***Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi***Baxodirova Xamida Latifjon qizi***Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi***MAQOLA
MALUMOTI****ANNOTATSIYA:****MAQOLA TARIXI:***Received: 28.11.2025**Revised: 29.11.2025**Accepted: 30.11.2025***KALIT SO'ZLAR:***Talab, taklif, narx,
mavsumiylik, defitsit,
iste'molchi
psixologiyasi, Yangi yil.**Ushbu maqolada Yangi yil bayrami oldida narxlar nima uchun oshishi talab va taklif nazariyasi orqali tushuntiriladi. Xaridor psixologiyasi va mavsumiy talabning narxga ta'siri ham ko'rib chiqiladi.***Kirish**

Har yili Yangi yil bayrami arafasida bozorlarda narxlar ko'tarilganini guvohi bo'lamiz. Masalan, oziq-ovqatlar, sovg'alar va hatto xizmat ko'rsatish ham qimmatlashadi. Ko'pchilik bu holni shunchaki 'bayram yaqinlashgani uchun' deb tushunadilar. Aslida bu holat iqtisodiyotning talab va taklif qonuni bilan bog'liq. Bayram arafasida odamlar ko'proq xarid qilishi bilan talab ortadi. Ammo ishlab chiqarish va yetkazib berish shu darajada tez o'zgarolmasligi sabab taklif o'zgarmaydi. Shu sabab narxlar ko'tarilishni boshlaydi.

Talabning oshishi

Yangi yil – odamlar ko'proq xarajat qiladigan bayram bo'lib, bu talabni sezilarli darajada oshiradi. Bayram arafasida sovg'alar xarid qilish eng katta xarajatlardan biridir. Oilasi,

do'stlari va yaqinlari uchun sovg'a olishni istaydigan odamlar soni ko'payadi. Shu bilan birga oziq-ovqatlar va xizmatlarga ham talab ortadi. Talab oshishi bilan narxlar ham oshadi, chunki bozorda hamma narsani miqdori va yetkazib berilishi cheklangan. Shu sababli mahsulotlar va xizmatlar yetishmay qolishi mumkin.

Taklifning sekinligi

Yangi yil arafasida talab oshadi, lekin taklif (mahsulotlar va xizmatlarni bozorga yetkazib berish) har doim ham tezda amalga oshmaydi. Do'konlar va fabrikalar bir vaqtning o'zida juda ko'p miqdordagi mahsulot tayyorlay olmaydi. Chunki ishlab chiqarishda har bir mahsulot vaqt talab qiladi. Bayram arafasida yetkazib berish va xizmat ko'rsatish bilan shug'ullanuvchi odamlar ham ko'proq band bo'ladi yoki dam olishga chiqadi. Natijada, xizmatlar va mahsulotlar talabga yetarlicha tez javob bera olmaydi va bozor narxi oshadi.

Xaridor psixologiyasi

Yangi yil oldida narxlar oshishining yana bir sababi – xaridorlarning xarid qilish psixologiyasi. Bayram arafasida odamlar tez xarid qilishga intiladi, chunki 'tugab qoladi' degan fikr ularni tez xarid qilishga chorlaydi. Bundan tashqari, xaridorlar 'kechikib xarid qilsam narx oshadi' deb o'ylashadi va bu psixologik ta'sir ularni oldindan xarid qilishga undaydi va talabni yanada oshiradi.

Mavsumiy talabning narxga ta'siri

Narxlar faqat talab va taklifga bog'liq emas, balki mavsumiy omillarni ham o'z ta'siri bor. Yangi yil arafasida sovg'alar, shirinliklar, archalarga talab keskin oshadi. Shu sababli, ishlab chiqaruvchilar va do'konlar narxlarni oshiradi. Chunki, odamlar ko'proq xarid qiladi va bu mavsumiy mahsulotlarni olishga harakat qiladi. Ba'zi mahsulotlar, masalan, archalar, bayram bezaklari, maxsus shirinliklar faqat bayram arafasida talab qilinadi.

Xulosa

Yangi yil oldida narxlarning oshishi bir nechta omillarga bog'liq. Bular talabning oshishi, taklifdagi yetishmovchilik, xaridor psixologiyasi va mavsumiy talab. Bayramlar oldi narxlar ko'tarilishi 'bayramga oz qolganligi' uchun emas balki iqtisodiyotning talab va taklif qonuni bilan bevosita bog'liq. Bu jarayon har yili takrorlanadi va bu iqtisodiy hodisa.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo‘mitasi (2025). Iqtisodiy ko‘rsatkichlar va bozor holati.
2. Beg, M. (2018). Talab va taklif nazariyasi asoslari. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
3. Kotler, P. & Armstrong, G. (2020). Principles of Marketing. Pearson.

